7 Dodiev F. Investitsiya faoliyatini moliyaviy rag'batlantirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 1998 y., 10 b.

qarashlari, amaliyotdagi muammolar va ularning yechimlari bo'yicha izlanishlari hamda sohaga doir qonuniy va me'yoriy-huquqiy hujjatlar chuqur o'rganildi. Olingan statistik ma'lumotlar asosida ekonometrik tahlillar amalga oshirilib, O'zbekistonda investitsiyalarni moliyaviy boshqarishning joriy holati baholandi, kelgusi yillar uchun prognoz ko'rsatkichlari shakllantirildi hamda tegishli xulosa va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda iqtisodiy munosabatlarni tashkil etishda "klaster" usulidan foydalanish keng joriy etilmoqda. Mazkur uslub bevosita investitsiya loyihalarini sindikatli kreditlash amaliyotini tashkil etish jarayoniga qo'llanilishi kerak. Fikrimizcha, "klaster" usuli asosida "ishlab chiqaruvchi-iste'molchi-xizmat ko'rsatuvchi banklar" aloqadorligini ta'minlash yo'li orqali sindikatli kreditlash mexanizmini quyidagicha tashkil etilishi maqsadga muvofiq:

- investitsiya loyihasi nafaqat tegishli davlat organlari va banklar, shuningdek, investitsiya loyihasini amalga oshirish natijasida olinuvchi mahsulotning potensial iste'molchilari tomonidan ekspertizadan o'tkazilishi lozim. Bunda investitsiya loyihasini texnik iqtisodiy asosnomasi moliyaviy-texnik ekspertizasini o'tkazishda loyihaning barcha parametrlari potensial iste'molchilarning talablari to'liq inobatda olinishi kerak. Investitsiya loyihasini ekspertizadan o'tkazish va uning iqtisodiy samaradorligini baholash jarayonining keng jamoatchilik va iste'molchilar uchun shaffofligini ta'minlash maqsadida loyihaning asosiy parametrlari tegishli organlarning rasmiy saytlari va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi zarur;
- moliyaviy-texnik ekspertiza o'tkazilishi natijasida investitsiya loyihasi yuzadan ijobiy qarorning qabul qilinishi loyiha tashabbuskori va iste'molchilar o'rtasida uzoq muddatli hamkorlik shartnomasining tuzilishi bilan yakunlanishi zarur. Bunda ishlab chiqarilayotgan mahsulot aniq iste'mochiga emas, keng jamoatchilik uchun mo'ljallansa, jamoatchilik nomidan mahalliy hokimiyat organlari shartnomani imzolashi mumkin;
- investitsiya loyihasi bo'yicha ekspertiza o'tkazilishi va tegishli shartnomalar tuzilishi loyihaning tashabbuskori banki tomonidan kredit siyosatida belgilangan tartibda investitsiya loyihasini moliyalashtirish bo'yicha tadbirlarni boshlashga asos bo'ladi. Investitsiya loyihasini moliyalashtirish samaradorligini ta'minlashda loyiha tashabbuskori va iste'molchilari, ularga xizmat ko'rsatuvchi banklarning solidar javobgarligini yuza keltirish uchun bank sindikati tashkil qilinadi;
- sindikatli kreditlash tashkilotchisi (yetakchi bank) sindikatli kreditlashda ishtirok etish xohishini bildirgan banklar (shuningdek, xorijiy moliya institutlari) ni (ishtirokchi banklar) aniqlaydi va ularga sindikatda qatnashish taklifi bilan birga tayyorlangan qarz oluvchi to'g'risidagi axborotni taqdim etadi. Shundan keyin yetakchi bank ishtirokchi banklar bilan investitsiya loyihasi bo'yicha barcha kredit hujjatlarini shakllantiradi. Bunda e'tiborga olish zarurki, ishtirokchi banklar bilan muzokaralar boshlangunga qadar yetakchi bank tomonidan bankning ichki kredit siyosati bilan belgilangan tartibda kredit paketi tahlili asosida barcha kredit hujjatlari hamda ishtirokchi banklar o'rtasida tuziladigan investitsiya loyihasini birgalikda kreditlash borasidagi o'zaro kelishuv loyihasi tayyorlab qo'yilgan bo'lishi shart.



1-rasm. Investitsiya loyihalarini sindikatli kreditlashning umumiy sxemasi⁸



Shu bilan birga ishtirokchi banklar tarkibiga iste'molchilar banklari bilan bir qatorda investitsiya loyihasini amalga oshirishdan manfaatdor barcha tomonlar bo'lishi maqsadga muvofiq.

Bugungi kunda tijorat banklari tomonidan yirik investitsiya loyihalarini sindikatli kreditlash usulini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-oktyabrdagi 670-sonli "O'zbekiston iqtisodiyoti uchun tizimli ahamiyatga ega yirik korxonalar tomonidan bank krediti va tashqi qarzlarini jalb qilish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida aks etgan.

Natijada, tijorat banklarining sindikatli kreditlar berish uchun zarur uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlash zarur. Buning uchun Markaziy bankning tijorat banklari uzoq muddatli depozitlariga nisbatan belgilangan majburiy zaxira stavkalarini pasaytirish hamda davlatga tegishli pul mablag'larini iqtisodiyotning tayanch tarmoqlarida sindikatli kreditlashni amalga oshirayotgan tijorat banklariga uzoq muddatli depozit sifatida joylashtirish lozim.

Sindikatli kreditlashda olingan kreditni qaytara olmaslik riskini bartaraf etish maqsadida investitsiya loyihasi tashabbuskori tomonidan aksiyalar yoki aksiyalarga konvertatsiya qilinishi mumkin bo'lgan boshqa turdagi qarz qimmatli qog'ozlarini erkin savdo uchun muomalaga chiqarishi yoki iste'molchilar o'rtasida ularga obunani o'tkazishi mumkin.

Sindikatli kreditlanayotgan investitsiya loyihasini dastlabki, joriy va keyingi monitoringdan o'tkazish jarayonida yetakchi va ishtirokchi bank xodimlari bilan bir qatorda loyiha iste'molchilari vakillarining qatnashishi loyihani amalga oshirishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ko'plab muammolarni tezkor hal etish imkonini beradi.

Investitsion loyihalarni tijorat banki tomonidan sindikatli kreditlash jarayoni amaliy jihatdan quyidagi asosiy bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Kredit tuzilmasini ishlab chiqish. Bu bosqichda loyiha tashabbuskorining kredit buyurtmasi texnik iqtisodiy asosnoma bilan birga ko'rib chiqiladi va ular bo'yicha tegishli ekspert xulosasi shakllantiriladi.

2. Investitsiya loyihasini moliyalashtirish shartlari tayyorlanadi.

3. Investitsiya loyihasini moliyalashtirish shartlari loyiha tashabbuskori va boshqa manfaatdor tomonlar bilan kelishiladi.

4. Investitsiya loyihasi tashabbuskorining moliyaviy holati va kredit risklarini kamayirish uchun taqdim etilgan ta'minot obyektlari baholash.

5. Investitsiya loyihasini moliyalashtirish bo'yicha taqdim etilgan kredit hujjatlari majmuasini banklar kredit siyosatida belgilangan tartibda ko'rib chiqish va tasdiqlash.

6. Investitsiya loyihasini moliyalashtirish bo'yicha axborot memorandumini tayyorlash.

7. Potensial ishtirokchi banklarga investitsiya loyihasini moliyalashtirish uchun bank sindikatini tashkil etish yuzasidan taklifnomalarni jo'natish.

8. Bank sindikatini tashkil etish va investitsiya loyihasini moliyalashtirish shartlari aks ettirilgan shartnomalarni tasdiqlash, shuningdek, kredit hujjatlarini tayyorlash va imzolash.

9. Bank sindikatini tashkil etish va moliyalashtirilayotgan investitsiya loyihasining asosiy parametrlari yuzasidan ma'lumotlarni keng jamoatchilik e'tiborigi yetkazish.

10. Investitsiya loyihasini kreditlash.

2. Mamlakat mintaqalarida innovatsiyali va yuqori texnologiyalarga asoslangan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda vechur kompaniyalar (fondlar) faoliyatini tashkil etish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini vechurli moliyalashtirish amaliyoti mavjud emasligi, shuningdek, vechurli moliyalashtirishning xorijiy mamlakatlarda shakllangan tajribasidan to'g'ridan-to'g'ri foydalanish mumkin emasligi hamda mamlakat mintaqalari iqtisodiyotida yuzaga kelgan holat, ilmiy salohiyat va boshqa omillar vechurli moliyalashtirish aynan mintaqaviy xususiyatlarni e'tiborga olgan holda tashkil etilish va amalga oshirish zarur.

Vechurli moliyalashtirish va uni amalga oshirish mexanizmlari yuzasidan ko'plab yondashuvlarning mavjudligini hisobga olib, fikrimizcha, birinchi navbatda, mazkur faoliyat yo'nalishida qo'llanilayotgan atama va tushunchalarga aniqlik kiritilishi kerak.

Vechur faoliyati innovatsiyalar sohasida yuqori riskli va uzoq muddatli biznes hisoblanadi. Vechur faoliyati amaliyotga joriy etish rejalashtirilayotgan va kichik biznes subyektlari tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot hamda tajriba-konstruktorlik ishlanmalari natijasida olingan kashfiyotlarni moliyalashtirishdir.

Boshqacha aytganda, vechur faoliyati texnik va texnologik yangiliklar, shuningdek, hali amaliyotda qo'llanilmagan ilmiy kashfiyotlar natijalarini amaliy faoliyatga joriy etishga yo'naltirilgan faoliyatdir.

Vechur kompaniyasi (fondi) kapitali yuqori riskli, yuqori texnologiyalarga asoslangan, innovatsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun milliy va xorijiy manbalardan shakllantirilgan moliyaviy resurslar. Kompaniya (fond) o'z mablag'laridan cheklangan muddatga, moliyalashtirilayotgan kompaniya aksiyalarini sotib olish



uchun foydalanadi (joylashtirilgan kapitalni tegishli foyda bilan qaytarish muddatiga, ammo odatda 7 yildan oshmagan davrga).


Venchur kapitali – rivojlanishning dastlabki bosqichida (masalan, startap) yoki korxonani kengaytirish davrida venchur fondi tomonidan tadbirkorlik subyektlariga investitsiya qilinadigan kapital. Moliyalashtirish oddiy aksiyalarni, konvertatsiyalanadigan imtiyozli aksiyalar yoki konvertatsiyalanadigan qarz majburiyatlarini sotib olish ko'rinishida amalga oshirilishi mumkin.

Startap (ing. 'start-up') – tashkil etilishidan boshlab uzoq muddat o'tmagan (odatda 3 oydan oshmagan, ba'zi mamlakatlarda bir necha haftadan bir necha oygacha) kompaniyalar, firmalar yoki loyihalarning umumiy nomi. Mazkur davr tugagach, loyiha yoki investitsiya qo'llab-qo'vvatlanadi yoki talabga javob bermaydigani va raqobatbardosh bo'lmagani yopiladi.

Fikrimizcha, mintaqaviy venchur kompaniyasining (fondi) asosiy vazifasi – mintaqalarni rivojlantirish strategiyasida nazarda tutilgan vazifalarni bajarishda yetarli ahamiyat kasb etuvchi yo'nalishlar bo'yicha oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tadqiqot markazlarida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish hamda olingan natijalarni amaliy faoliyatga joriy etish (startap) jarayonini moliyalashtirishdan iborat bo'lishi zarur.

Ayni paytda mamlakat va uning mintaqalarida venchurli moliyalashtirishning sohasining rivojlanmaganligini hisobga olgan holda, venchur fondi tashkiliy jihatdan tanlab olingan loyihalarni moliyalashtirish jarayonini tashkil etish, amalga oshirishni boshqarish, nazorat va monitoringdan o'tkazishga ixtisoslashgan maxsus xo'jalik hisobidagi yuridik shaxs sifatida tashkil etilishi mumkin.

Mamlakat mintaqalarida venchur kompaniyalari (fondlari) faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha muallif tomonidan ilgari surilgan konseptual yondashuvni ifodalaydi. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, venchur kompaniyasi (yoki venchur fondi) mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida tashkil etiladi hamda uning investitsion kapitalida ishtirok etayotgan investorlar vakillari tomonidan boshqaruvning umumiy strategik yo'nalishlari belgilab boriladi. Mazkur model venchur moliyalashtirish mexanizmlarini institutsional jihatdan takomillashtirish hamda innovatsion loyihalarni moliyaviy boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan. (2-rasmga qarang)



2-rasm. Venjur kompaniya fondi faoliyatining umumiy sxemasi⁹

9 Muallif ishlanmasi.



Tadqiqot jarayonida innovatsion va yuqori texnologiyalarga asoslangan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda turli yo'nalishdagi imtiyozlar tizimini tatbiq etgan holda venchur fondlar faoliyatini samarali tashkil etish mexanizmi ishlab chiqilgan. Ushbu ma'lumot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11 sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmonida aks etgan.

Natijada, Venchur fondi faoliyatiga umumiy rahbarlikni uning kapitalida ishtirok etuvchilarning vakillari olib boradi. Xorijiy davlatlar tajribasi va iqtisodiyotimizning milliy xususiyatidan kelib chiqib, innovatsion va ilmiy sig'imli investitsiya loyihalari, ayniqsa, startaplarni moliyalashtirish uchun venchur fondlarini tuzish maqsadga muvofiq. Hududlarda venchur fondlarini mahalliy hokimiyat organlari, tijorat banklari, investorlar va aholi mablag'lari hisobidan shakllantirish mumkin. Ushbu fondlar moliyaviy resurslaridan hududlar investitsiya salohiyatini hisobga olgan holda foydalanish lozim. Shuningdek, respublikamizda venchurli moliyalashtirishga talab yuqori bo'lib, ushbu riskli investitsiyalash usuli rivojlanmaganligi tufayli mazkur muammoni ijobiy hal etish uchun xorijiy venchur fondlarini faol jalb etish zarur.

Mamlakatning iqtisodiy hududlarida venchur moliyalashtirish amaliyotining nisbatan yangiligi va ushbu mexanizmga xos yuqori darajadagi risklarni inobatga olgan holda, venchur kompaniyasi (yoki venchur fondi) faoliyatini boshlang'ich bosqichda moliyalashtirish manbalarini asosan respublika va mahalliy budjetlar hamda maxsus maqsadli fondlar resurslari hisobidan shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv venchur moliyalashtirishning dastlabki bosqichdagi noaniqliklarini kamaytirish va innovatsion loyihalar uchun zarur moliyaviy zamin yaratishga xizmat qiladi.

Venchur kompaniyasi (fondi)ning bosh vazifasi – hududiy rivojlanish strategiyalarida ustuvor deb belgilangan yo'nalishlar bo'yicha oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlarni qo'llab-quvvatlash, ularning amaliyotga tatbiq etilishi (startaplar shaklida) uchun zarur moliyalashtirish mexanizmlarini yo'lga qo'yishdan iborat. Shu maqsadda venchur fondi tarkibida istiqbolli ilmiy-texnologik loyihalarni saralash va baholash bilan shug'ullanuvchi maxsus ekspert guruhini tashkil etish zarur.

Mazkur ekspert guruhining vazifalariga ilmiy-tadqiqot markazlari, xo'jalik yurituvchi subyektlarning konstruktiv bo'linmalari hamda individual tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalarni muntazam o'rganish, ular orasidan tijoratlashtirilish salohiyati yuqori bo'lganlarini aniqlash va loyiha yakunlanib, to'liq hujjatlashtirilguniga qadar (tayyor loyiha, patent va boshqalar) zarur moliyalashtirish to'g'risida qaror qabul qilish kiradi. Shuningdek, ekspertlar guruhiga loyiha muallifining ilmiy natijalarni tijoratlashtirishdan olinadigan moliyaviy foydada ulushini aniqlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish vazifasi yuklatiladi.

Tanlangan va moliyalashtirilgan ilmiy loyihalar natijalari – to'liq rasmiylashtirilgan ilmiy ishlanmalar, texnologiyalar, patentlar va boshqa intellektual mulk obyektlari – mamlakatda faoliyat yuritayotgan biznes tuzilmalari yoki xorijiy kompaniyalarga realizatsiya qilinishi mumkin. Bu esa venchur kapital mexanizmini hududiy iqtisodiy rivojlanish, innovatsion faoliyatni faollashtirish hamda investitsiyalarni moliyaviy boshqarish metodologiyasini modernizatsiya qilishning samarali vositasiga aylantiradi.

Yuqoridabelgilangan vazifalarning to'laqonli amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida, venchur kompaniyasi (yoki venchur fondi)ning tashkiliy tuzilmasi konseptual modelga muvofiq shakllantirilishi maqsadga uyg'un hisoblanadi. Bunday yondashuv investitsiyalarni moliyaviy boshqarish jarayonida venchur moliyalashtirish mexanizmlarini institutsional ravishda takomillashtirish, innovatsion loyihalarni tanlash, baholash va ularni moliyalashtirish bo'yicha qarorlarni samarali qabul qilish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytiradi.

Umuman, venchur kompaniyasi (fondi) boshqaruv organlari o'rtasida vazifa va vakolatlarning taqsimlanishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

Kuzatish Kengashi venchur kompaniyasi (fondi) faoliyatini boshqarish va loyihalarni moliyalashtirish yuzasidan takliflarni ko'rib chiqish va ular bo'yicha yakuniy qaror qabul qilish.

Direktorlar Kengashi – venchur kompaniyasi (fondi) guruhlari faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirish, moliyalashtirish uchun tanlangan loyihalarni ko'rib chiqish va takliflar majmuasini shakllantirish, loyihalar bo'yicha tegishli qarorlarning loyihalarini ishlab chiqish.

Loyihalarni o'rganish va tanlash guruhi ilmiy tadqiqot markazlari (milliy va xorijiy) bilan hamkorlik shartnomalarini tuzish, olib borilayotgan tadqiqotlarning dastlabki monitoringini amalga oshirish va istiqbolli tadqiqotlarni moliyalashtirish bo'yicha takliflarni tayyorlash.

Loyihalar ekspertizasi, monitoring va nazorat qilish guruhi tanlangan loyihalarni ekspertizadan o'tkazish, moliyalashtirishga qabul qilingan loyihalarning amalga oshirilishi jarayonini monitoring va nazorat qilish.

Investitsiyalarni jalb etish va xalqaro hamkorlik guruhi venchur kompaniyasi (fondi) faoliyatini kengaytirish va rivojlantirishning moliyaviy manbai bo'lgan venchur kapitaliga investitsiyalarni jalb etish, shuningdek, venchurli moliyalashtirish faoliyatini targ'ib etish.

Yuqorida keltirilgan tashkiliy tuzilma tarkibida zarurat va moliyaviy imkoniyatlarga ko'ra "Rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish guruhi" va "Venchur kompaniyasi faoliyatini baholash va hisobini yuritish guruhi" tashkil etilishi mumkin. Bunda e'tiborga olish zarurki, venchur kompaniyasi(fondi)da buxgalteriya hisobi va hisoboti tashqi tashkilotlar (auditorlik, konsalting va boshqalar) tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.



3. Ichki moliyaviy resurslar, jumladan, aholi ixtiyoridagi milliy va xorijiy valyutadagi mablag'larni investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga jalb etish bo'yicha muomalaga investitsiya qimmatli qog'ozlari, xususan, mahalliy boshqaruv organlari va ipoteka obligatsiyalarini muomalaga chiqarish maqsadga muvofiq.

Investitsiya faoliyatida yuz berayotgan o'zgarishlar mintaqalar infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga xususiy shaxslar mablag'larini keng jalb etishni taqozo qiladi. Mintaqalar infratuzilmasiga kiruvchi sohalarining bir qismi bevosita mahalliy budjet mablag'laridan moliyalashtirilishi, shuningdek, mazkur sohalarining kelgusi rivojlanishi miqtaqa iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etishini hisobga olgan holda mahalliy hokimiyat tomonidan muomalaga qayd etilgan foizli kuponli obligatsiyalarni chiqarilishi yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtinchalik bo'sh mablag' va jamg'armalarini jalb etish jarayonini muayyan ravishda faollashtirishi mumkin.

Respublikada fond bozorining yetarli darajada rivojlanmaganligi, uning jahon moliya bozorlariga integratsiya darajasi pastligi, shuningdek, investitsiya faoliyati bo'yicha milliy mentalitetni e'tiborga olgan holda qayd etilgan foizli ko'ponli obligatsiyalarni ochiq obuna o'tkazish yo'li bilan joylashtirish maqsadga muvofiq.

Xususan, inflyatsiya jarayonlari natijasida milliy valyutani sotib olish quvvati pasayishi natijasida aholi o'z jamg'armalarini nisbatan barqaror hisoblanuvchi xorijiy valyutada saqlashi, yirik xaridlarni amalga oshirishda xorijiy valyutalarning keng qo'llanishi va hokazolarni qayd etish mumkin. Mazkur muammolarni bartaraf etish yo'llaridan biri ularni investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga jalb etish hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ivestitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi, investitsiya faoliyati mavjud holati va alohida xususiyatlarini e'tiborga olgan holda quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha borishi maqsadga muvofiq:

- investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda "klaster" usuli asosida "ishlab chiqaruvchi-iste'molchi-xizmat ko'rsatuvchi banklar" aloqadorligini ta'minlash yo'li sindikatli kreditlash mexanizmini joriy etish;
- mamlakat va hududlarning ilmiy salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish, shuningdek, tadqiqotlarning strategik ahamiyat kasb etuvchi yo'nalishlarda olib borilishi rag'batlantirish uchun mintaqaviy venchur kompaniyalari (fondlari) ni tashkil etish;
- mintaq hududida istiqomat qiluvchi aholi jamg'armalari va faoliyat yurituvchi xo'jalik subyektlari mablag'larini jalb etish uchun muomalaga mahalliy hkimiyat organlarining qayd etilgan foizli kuponli obligatsiyalari hamda ipoteka qimmatli qog'ozlarini chiqarish va obuna yo'li bilan joylashtirish;
- mintaqalarda turli yo'nalishlardagi investitsiya faoliyatini yagona maqsad yo'lida amalga oshirishni ta'minlash mexanizmlarini shakllantirish va amaliyotga qo'llash.

Fikrimizcha, dissertatsiya ishida keltirilgan investitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar yaqin istiqbolda mintaqqa iqtisodiyotini rivojlantirishda bir qator strategik ustuvorliklarni shakllantirish imkonini beradi. Strategik ustuvorliklar quyidagi yo'nalishlarda o'z ifodasini topadi:

- mintaqalar ichki mahsuloti tarkibida yuqori texnologiyalar va ilmiy kashfiyotlar asosida ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlar salmog'i oshiriladi;
- investitsiya loyihalarining samaradorlik darajasi oshadi va ularni amalga oshirishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni miqdor va sifat jihatdan kamaytirish imkoniyati yaratiladi;
- investitsiya faoliyatidagi o'zgarishlar mintaqalarning yuqori qo'shilgan qiymatli tovar va xizmatlar hajmi oshirilishida muayyan ahamiyat kasb etadi;
- investitsiya faoliyatidagi o'zgarishlar mintaqalarning ilmiy salohiyatini kuchaytirish bilan birga innovatsiyalar hajmi va sifatini oshirish imkonini beradi;
- investitsiya faoliyatidagi o'zgarishlar mintaqalarning investitsiyali jozibadorligi kuchaytirish bilan birga ichki resurslarni jalb etish jarayonini faollashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Williams, J. V. The Theory of Investment Value Cambridge. Mass.: Harvard Univ. Press, 1938. – 55 r.
2. Markowitz, H.M. Foundations of Portfolio Theory. Journal of Finance, 1991, vol. 46. - № 2. - R. 469-77.
3. Charaeva V. Strategicheskoe finansovoe upravlenie realnymi investitsiyami rossiyskix predpriyatiy: teoriya i metodologiya. Avtoref. disser. na sois. ucheiyo stepen doktora ekonomicheskix nauk po spes. 08.00. 10 - Finansy, deneznoe obrauchenie i kredit. – Rostov na Donu. 2011. 22 s.
4. www.blackrock.com ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
5. Global Investment Competitiveness Report 2017 pubrights@worldbank.org. ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
6. <https://www.worldbank.org> - World Bank – statistik ma'lumotlari asosida.
7. Agentligi (Germany Trade & Invest, GTAI) - Germaniya Tashqi Savdo va
8. Investitsiyalar ma'lumotlari.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
